



Structure of methodological system, content and organization factors of development of information-analysis competence in future primary class teachers

Sobirjon MEYLIYEV¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2023

Received in revised form

15 February 2023

Accepted 15 March 2023

Available online

25 April 2023

Keywords:

methodological system,
structure,
inquiry,
analysis,
competence,
education,
teacher's role.

ABSTRACT

This article examines the structure of a methodological system for the development of information and analytical competence of future primary school teachers, and the content and organizational factors of implementation of development. The necessity of using reasonable data at each stage of obtaining results is emphasized.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp172-176>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot-tahlil kompetentligini rivojlantirishning metodik tizim tuzilmasi, mazmuni va rivojlantirishning tashkiliy omillari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

metodik tizim,
tuzilma,
so'rov,
tahlil,
kompetensiya,
ta'lim,
o'qituvchi roli.

Ushbu maqolada bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot tahlil kompetentligini rivojlantirishning metodik tizim tuzilmasi, mazmuni va rivojlantirishning tashkiliy omillarini qanday amalga oshirish haqida so'z boradi. Natijalarning har bir bosqichida asosli ma'lumotlardan foydalanish zarurligi ta'kidlab o'tilgan.

¹ Acting Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Структура методической системы, содержание и организационные факторы развития информационно-аналитической компетенции у будущих учителей начальных классов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

методическая система, структура, запрос, анализ, компетентность, образование, роль учителя.

В данной статье рассматривается структура методической системы развития информационно-аналитической компетентности будущих учителей начальных классов, содержание и организационные факторы реализации развития. Подчеркивается необходимость использования обоснованных данных на каждом этапе получения результатов.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, ta'lim sohasiga sezilarli o'zgarishlar, yangiliklar va o'qitishning innovatsion texnologiyalarini olib kirish imkoniyatini yaratdi. Bunday yangiliklarning o'quv jarayoniga kirib kelishi uning mazmunini ham boyitishni taqozo qilmoqda. Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [1] qabul qilindi. Ushbu konsepsiyani amaliyotga tatbiq etish asosida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv jarayoni natijalarini baholash, uning samaradorligini ta'minlashga oid bilimlarini boyitish zaruriyati yanada kuchaymoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning ta'limdagi islohotlar mohiyatini tushunishlari, anglab yetishlari va o'z faoliyatlarida undan foydalanishlari uchun qulay pedagogik muhit yaratish talab qilinmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limi va tarbiyasi tizimida, jumladan, ularning axloqiy tarbiyasida pedagogning roli beqiyosdir. Bola hayotining katta qismi aynan pedagogik faoliyat jarayonida kechadi, uning xarakteri, hayotiy qarashlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, ya'ni uning shaxs sifatidagi fundamental sifatleri shakllanadi.

Aynan shuning uchun pedagog shaxsi – "ulg'ayishning ideal obrazi" hisoblanib, unga ko'ra uning yaxlitligi, uyg'unligi va birinchi navbatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlari va maqsadlari bolaning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida [2] "uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish" [2] ta'lim tizimining ustivor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan.

Bolaning axloqiy rivojlanishining muvaffaqiyatliligi nafaqat rivojlantiruvchi dasturlar[3]ning mavjudligi bilan yoki bolaning “irsiy” dasturi bilan, balki pedagog shaxsi, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi rivojlanishining ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ularning insonparvarlik yondashuvlarining shakllanishi sharoitlarida o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlash quyidagi integrativ tashkil etuvchilar doirasida o‘rganiladi:

pedagogning kasbiy-shaxsiy insonparvarlik sifatlarining bolaning ma’naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi bilan o‘zaro aloqadorligida shakllanishi, shuningdek o‘qituvchi va o‘quvchining mos sifatlarining rivojlanish kompleksining dinamik tizimlarini ishlab chiqish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan amalga oshiriladigan har qanday ta’lim-tarbiyaviy tadbirlar ularning darsda olgan bilimlarini to‘ldirishi lozim. Shu jihatdan qaraganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllaridan to‘g‘ri foydalana olish ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, qiziqishlarini oshiradi, iste’dodlarining namoyon bo‘lishiga imkoniyat yaratib beradi. Shunga ko‘ra, mazkur tadbirlarni samarali tashkil etish pedagogik dolzarb masalalardandir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan sinfdan tashqari ta’lim jarayonida tashkil etiladigan tadbirlarning asosiy vazifasi – o‘quvchilarning darslarda olgan bilimlarini yanada to‘ldirish, kengaytirish va amalda tatbiq etishga o‘rgatishdan iborat. Buning natijasida o‘quvchilarda milliy qadriyat hisoblangan o‘yinlar, an’analar nisbatan qiziqish ortadi, ular qalbiga milliy madaniyatni singdirish va shu orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etilishini ta’minladi.

Bunday tadbirlarda ham darsda bo‘lgani singari barcha mas’uliyat sinf rahbarining zimmasiga yuklatiladi. Bu esa o‘z-o‘zidan bo‘lajak o‘qituvchidan izlanish, tashabbuskorlik, ijodiy yondashuvni talab qiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘tkaziladigan sinfdan tashqari tadbirlarning o‘ziga xos xususiyati – o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni tarkib toptirish va rivojlantirishdan iborat. O‘quvchilar kundalik ishlarining uzviy davomi sifatida sinfdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy ishlarda ishtirok etadilar, savol-javoblarda qatnashadilar va shu bilan birga o‘z tengdoshlarining fikrlarini ham tinglab boradilar. Buning natijasida o‘quvchilarning bilimi, ma’naviy dunyosi boyib boradi [4]. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashga yo‘naltirilgan har qanday darsdan tashqari ish shakllari oldiga aniq maqsadlar qo‘yiladi va mazkur maqsadga erishishga xizmat qiladigan pedagogik vositalar, shakllar, metodlar va usullarni tanlashga undaydi. Sinfdan tashqari ta’lim jarayonida tashkil etiladigan tadbirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining birinchi sinflardanoq keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilishi lozim. Mustaqillik bayrami, O‘qituvchilar kuni, Hosil bayrami, Alifbe bayrami, Yangi yil bayrami, Navro‘z bayramiga bag‘ishlab turli tadbirlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ta’lim-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda darsdan tashqari ish shakllaridan foydalanishda quyidagi pedagogik talablarni bajarishi lozimligi o‘qitiriladi:

- sinfdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarning aniq loyihalashtirilishi, mazkur tadbirlarning maqsadi va unga erishish yo‘llari ko‘rsatilishi, kafolatlangan natija aniq ifodalanishi;

- sinfdan tashqari o‘tkaziladigan har qanday tadbir o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ruhiy holatlari, bilim darajalari va ta’lim jarayoniga mutanosib bo‘lishi;

- sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar o'quvchilarning dars jarayonida olgan axloq-odobga undashga oid bilim, ko'nikma va malaka, kompetensiyalarini mustahkamlash hamda boyitishga xizmat qilishi;
- sinfdan tashqari o'tkaziladigan har bir tadbir aniq maqsad va reja asosida amalga oshirilishi;
- sinfdan tashqari tadbirlar orqali boshlang'ich sinflardan o'quvchilarda milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat, ajdodlarimiz mehnati va faoliyati bilan faxrlanish tuyg'usi singdirilishi lozim. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:
 - sinfdan tashqari ta'lim jarayonida o'tkaziladigan tadbirni rejalashtirish bosqichi;
 - tadbir maqsadini aniq belgilab olish bosqichi;
 - aniq maqsad asosida o'tkaziladigan tadbirni loyihalashtirish;
 - o'tkaziladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbir haqida o'quvchilarga ma'lumot berish;
 - tadbirni tashkil etish jarayonida sinf o'quvchilarining barchasi ishtirok etishini ta'minlash;
- o'tkaziladigan tadbir doirasidagi ishlarni o'quvchilarning imkoniyatlari va layoqatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlash;
- rejalashtirilgan ta'lim-tarbiyaviy tadbirni amalga oshirish;
- o'tkazilgan tadbir natijalarini tahlil qilish va unda o'quvchilarning ishtiroklarini baholash. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:
 - boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan sinfdan tashqari tadbirlarga rahbarlik qilishda o'qituvchi yosh davrlari psixologiyasini bilishi va individual xususiyatlarga e'tibor qaratishi;
 - o'qituvchi sinfdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchilarda axloqiy tarbiyalanganlik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari, usullarini to'g'ri tanlashi;
 - o'qituvchi sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida o'quvchilarni izchil tarzda axloqiy tarbiyalanganlik ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rgatishi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda talabalarga sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirish yo'llarining mazmun mohiyatini chuqur o'rganishi, uning samaradorligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratishi kerakligi haqidagi bilimlar singdirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2018-yil 29-oktabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2019-2020-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja va takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 266-sonli buyrug'i.
2. Abdullaeva B.S. Boshlang'ich ta'lim sifat-samaradorligini ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida oshirish. // "Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy konferensiya to'plami. Toshkent.: 2017. – 421-b.
3. Vahobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim sifati monitoringi modelini amaliyotga joriy etish – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili. Maktab va hayot. – №4 (119), 2019. – 6-b.
4. P. Akhtar, J. Frynas, G. Mellahi, K. Ullah (2021). Big data-savvy teams' skills, big data-driven actions and business performance. In: Brit J Manage, 30(2), S. 262–269. <https://doi.org/10.1111/1467-8551>.

5. Cretchley J., Rooney D. and Gallois C. (2018) Mapping a 40-year history with Leximancer: Themes and concepts in the Journal of Cross-Cultural Psychology. *Journal of Cross-Cultural Psychology* 41: 218–228.
6. De Mauro A., Greco M., Grimaldi M., et al. (2018) Human resources for Big Data professions: A systematic classification of job roles and required skill sets. *Information Processing & Management* 54: 807–817.
7. Croteau A-M and Raymond L. (2010) Performance Outcomes of Strategic and IT Competencies Alignment¹. *Journal of Information Technology* 19: 168–172.